

Sh.X.Otaxonova, B.N.Qorayev, TMI magistrantlari
Mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlaridagi davlat ishtiroki va korporativ boshqaruv tizimi holati tahlili

Maqolada mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalida davlanning ishtiroki holati, davlat ishtirokidagi va xususiy aksiyadorlik jamiyatlarida o'rtacha ustav kapitali miqdori, davlatning korporativ boshqaruvdagi ishtiroki afzalliklari va kamchiliklari.

Kalit so'zlar: Korporativ boshqaruv, aksiyadorlik jamiyatlari, davlat, ustav kapitali, davlat ulushi, xususiy aksiyadorlik jamiyatlari, davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari.

The article discusses the state of participation of the state in the authorized capital stock of the country, the size of the share capital in state-owned and private joint-stock companies, advantages and disadvantages of state participation in corporate governance

Key words: corporate governance, joint stock companies, state, charter capital, state's share, private joint stock companies, state owned joint stock companies.

V state rassmatrivaetsya sostoyanie uchastiya gosudarstva v ustavnom kapitale strani, razmer ustavnogo kapitala v gosudarstvennix i chastnix aksionernix obshchestvax, preimushchestva i nedostatki uchastiya gosudarstva v korporativnom upravlenii.

Ключевие слова: корпоративное управление, акционерное общество, государство, уставный капитал, государственная доля, частное акционерное общество, орган хозяйственного управления, акционерные общества с государственным участием.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ko'lamini kengaytib, samaradorligi oshib borgan sari iqtisodiy tizimning negizi bo'lgan korxonalarining o'rni, roli va ahamiyati kun sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, davlat ulushini kamaytirish xususiy sektorni jadal rivojlantirishni rag'batlantirish, mamlakat iqtisodiyotida uning roli va ahamiyatini tubdan oshirish, xususiylashtirilgan korxonalarni va faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik tashkilotlarini korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biriga aylanib ulgurdi. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ana shunday ustuvor vazifalardan kelib chiqib, korporativ boshqaruvning

zamonaviy usullarini joriy etish bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, bu borada xalqaro tajribalar o'rganilib, 400 dan ziyod aksiyadorlik jamiyatida Korporativ boshqaruv kodeksi joriy qilindi. Kodeksga asosan 293 aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimi baholandi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ular orasida 32 ta aksiyadorlik jamiyatida ushbu ko'rsatkich yuqori, 244 tasida qoniqarli, qolganlari past va qoniqarsizdir.¹ Mamlakatimizda xalqaro biznes yuritish tartib-tamoyillari takomillashayotgani, korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlari, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga korporativ boshqaruv tamoyillari keng joriy etilayotgani milliy iqtisodiyotimizning salohiyatini tobora barqarorlashtirib, uning salohiyatini mustahkamlamoqda.

Bugun mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv usullari joriy etilgan kompaniyalar safi kengayib bormoqda. Chet el kapitali va korporativ boshqaruvning xorijiy usullariga asoslangan korxonalar har tomonlama rivojlanmoqda. Ular milliy iqtisodiyotimizning istiqbolini belgilashda katta ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish borasida muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Korporativ boshqaruv tushunchasining mohiyatiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, iqtisodchi olimlardan Bob Tricker "Korporativ boshqaruv – bu korporativ tuzilmalar ustidan boshqaruvni qo'llash yo'lidir. Korporativ boshqaruv kompaniyaning faoliyati va uning aksiyadorlari yoki a'zolari bilan bog'liq bo'lgan aloqalarni, shuningdek, korxonalar rahbarlari, tashqi auditorlar, tartibga soluvchi organlar va boshqa qonuniy manfaatdor tomonlar bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi"² deb ta'riflaydi

Shyein V.CH, Jupliyeva A.B, Volodin A.A " Korporativ boshqaruv - aksiyador xuquqlariga talluqli yoki korporatsiyalarni boshqarishdagi huquqiy qonunlar, nizomlar, qoidalar tushuniladi"³ deb ta'riflaydilar.

O'zbekistonning iqtisodchi olimlaridan M. Xamidulin Korporativ boshqaruv- "…korporatsiya mulkdorlarining korporatsiya kapitalini shakllantirish, undan foyda olish maqsadida yanada samarali foydalanishga hamda olingan daromadlarni korporativ munosabatlarning barcha ishtirokchilari o'rtasida adolatli taqsimlashga qaratilgan strategik muhim qarorlarni belgilash, ta'riflash va qabul qilishga doimiy va real ta'sirini ta'minlashdagi ongli, bevosita ishtirokidir"⁴ deb ta'rif bergan

¹ Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 8-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan o'tkazilgan majlisdan

² Bob. Tricker, "Corporate governance" Oxford, 2008

³ Shyein V.CH, Jupliyeva A.B, Volodin A.A Корпоративный менеджмент; опыт России и США. -М.: Новости 200.-280 с.

⁴ Xamidulin M. Финансовые механизмы корпоративного управления. Монография. – Т.: Молия, 2008-204с,

D. Suyunov tomonidan quydagicha ta'rif berilgan "Korporativ boshqaruv- bu mulk shaklidan qat'iy nazar amaldagi xuquqiy me'yorlarga asoslanib, boshqaruvning ma'lum bir tamoyillari asosida korxonaga maqsadiga erishish uchun amalga oshiriluvchi faoliyat majmuasidir"⁵.

Jahon bankining ta'rifiga ko'ra "Korporativ boshqaruv- qonunchilik, me'yorlar va xususiy sektorning mos ravishdagi amaliyotining shunday birikmasi tushuniladiki, ular kompaniyaga moliyaviy va inson resurslarini jalb etishga, samarali faoliyatni olib borishga imkon beradi va oqibatda o'z aksiyadorlari uchun uzoq muddatli iqtisodiy qiymatni ko'paytirish orqali o'zining mavjudligini saqlab qolishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, aksiyadorlar, boshqa manfaatdor shaxslar va jamiyatning manfaatlariga rioya qilishi kerak"⁶

Tahlil va natijalar

Davlatning korporativ boshqaruv mexanizmini joriy etish jarayonlarida qatnashishga to'xtaladigan bo'lsak, davlat korporativ boshqaruvda ikki tomonlama ishtirok etadi. Bir tomondan korporativ boshqaruv tizimini me'yoriy-huquqiy negizini hosil qilish va takomillashtirish hamda ular ustidan nazorat funksiyasini bajaradi.

Ikkinchi tomondan esa davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvida bevosita ishtirok etishi hamda "oltin aksiya" qo'llanilishi haqida hukumat qarori qabul qilingan AJ ning boshqaruvida qatnashadi.


Davlatning aksiyadorlik jamiyatlarida ulush orqali qatnashishi davlat moliyasi va korporativ moliya o'rtasida o'zaro bog'liqlikning bir ko'rinishi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatdagi ba'zi bir AJ larning aksiyalariga davlatning egalik qilisiga yagona sabab bozordagi yo'qotishlarning mavjudligidir. Davlat ulushi yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida jamiyat manfaatlarini va yo'qotishlari xususiy manfaat va yo'qotishlardan ustun bo'ladi.

01.01.2019 yildagi holatga ko'ra, 195 ta aksiyadorlik jamiyatida davlat ulushi 47 371,8 mlrd.so'mni tashkil etadi. Ushbu aksiyadorlik jamiyatlarida davlat boshqaruvi organlari, joylardagi davlat hokimiyati organlari, davlat unitar korxonalari, davlat muassasalari, O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki va Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi aksiyador hisoblanadi. 01.01.2019 yil holatiga ko'ra, Markaziy depozitariyda 173 aksiyadorlik jamiyatining ustav fondida 47 328,7 mlrd.so'm miqdordagi aksiya ko'rinishidagi davlat ulushi hisobi yuritilmoqda. Joriy yilning to'rtinchi choragida ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari soni 2 taga kamaydi, mavjud davlat ulushi hajmi esa 122,7 mlrd.so'mga ortdi. Xo'jalik boshqaruvi organlarining 279 AJ ustav fondidagi ulushlari hajmi 5 844,9 mlrd.so'mni tashkil etadi. To'rtinchi chorak davomida xo'jalik boshqaruvi organlari aktivlarining hajmi 310,6 mlrd.so'mga ortdi.

⁵ Suyunov.D Korporativ boshqaruv mexanizm: muammo va yechimlar.Vonografiya.-T.; Akademiya,2007.-319 b.

⁶ www.worldbank.org



1-rasm. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlari soni⁷.

01.01.2018 yil holatiga ko'ra, Markaziy depozitariyda 146 aksiyadorlik jamiyatining ustav fondida 38 039,89 mlrd.so'm miqdordagi aktsiya ko'rinishidagi davlat ulushi hisobi yuritilmoqda. Hisobot davrida ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari soni 12 taga kamaydi, biroq mavjud davlat ulushi hajmi 16 209,42 mlrd.so'mga ortdi.

311 aksiyadorlik jamiyatida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustav fondlarini shakllantirish uchun davlat tomonidan ilgari berilgan aktivlar hajmi nominal qiymati bo'yicha 3 293,33 mlrd. so'mni tashkil etadi. Joriy yil davomida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustav fondlarini shakllantirish uchun davlat tomonidan berilgan aktivlar hajmi 159,79 mlrd. so'mga ortdi.

05.01.2017 holatiga ko'ra mamlakatimizda 659 ta aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat yuritgan. Ushbu aksiyadorlik jamiyatlaridan 158 tasining ustav kapitalida turli darajada davlatning ishtiroki mavjud. Ya'ni qolgan 501 ta aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalida davlatning ishtiroki mavjud emas. Shuningdek, ushbu ma'lumotlarga muvofiq, 659 ta aksiyadorlik jamiyatlaridagi umumiy ustav kapitali 30463,50 mlrd so'mni tashkil etadi. Shunda davlat ishtiroki mavjud bo'lgan 158 ta aksiyadorlik jamiyatlari umumiy ustav kapitali 24567,95 mlrd so'mni tashkil etib, ushbu ustav kapitalining 21830,47 mlrd so'm miqdordagi qismi davlat ulushiga to'g'ri keladi.

01.01.2016 yil holatiga ko'ra 209 ta aksiyadorlik jamiyatining ustav fondidagi aktsiya shaklida bo'lgan davlat ulushi - 9 855, 27 mlrd. so'mni tashkil etdi. Hisobot

⁷ www.deponet.uz saytidan foydalanib muallif tomonidan tuzildi.

davri davomida ustav fondida davlat ulushiga ega bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari soni 169 taga qisqardi, davlat ulushi miqdori esa - 2 721,92 mlrd. so'mga ortdi.

445 ta aksiyadorlik jamiyatlariga ilgari xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ustav fondiga nominal qiymati bo'yicha berilgan davlat aktivlari miqdori 1 285,68 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ustav fondidagi davlat aktivlari hajmi 794,22 mlrd. so'mga ortgan bo'lsa-da, aksiyadorlik jamiyatlari soni 137 taga qisqargan. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2015 yil 21-dekabrda PQ-2454 sonli qarorining qabul qilinishi va uning ijrosini ta'minlash maqsadida belgilangan xorijiy investitsiyalarni belgilangan muddatda va miqdorda bajarmagan aksiyadorlik jamiyatlari o'z- o'zidan boshqa mulkchilik shakliga o'zgartirilayotganligi sabab bo'lmoqda.

Davlatning korporativ boshqaruvdagi ishtiroki afzalliklari va kamchiliklari⁸

Afzalliklari	Kamchiliklari
1. Strategik ahamiyatga ega iqtisodiyot soha va tarmoqlarida samarali davlat nazorati o'rnatiladi.	1. Davlatning haddan tashqari ko'p aralashuvi korporativ tuzilmaning mustaqilligini chegaralaydi.
2. Startegik vuhim tarmoqlarning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi.	2. Oltin aksiya asosida veto quyish huquqining berilishi qarorlar qabul qilishning ortga surilishiga olib keladi
3. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshiradi	3. Veto qo'yish huquqi davlat vakili tomonidan qarorlar qabul qilish aralashib yuborish holatlari uchraydi.
4. Yirik aksiyadorlik jamiyatlari bankrotliginigi oldi olinadi va tugatilishiga yo'l qo'yilmaydi	4. Aksiyadorlik jamiyatlariga investorlarning qiziqishlari nisbatan past bo'ladi.
5. Davlat budjeti soliqlardan boshqa daromadlarga ega bo'ladi	5. Xususiy mulkdoralar sinifning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi
6. Monopoliya tartibga solib turiladi va narxlar barqarorligi ta'minlanadi	6. Boshqa aksiyadorlarning huquqlari chegaralanishiga olib keladi
7. Professional boshqaruv amalga oshiriladi va boshqalar.	7. Divident amaliyotlari deyarli kuzatilmaydi va boshqalar.

Davlatning korporativ boshqaruvdagi ishtiroki strategik ahamiyatga ega iqtisodiyot soha va tarmoqlarida samarali davlat nazoratini o'rnatish orqali aholini ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim tarmoqlarning rivojlantirish imkonin beradi.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish orqali davlat aholi turmush farovonligini oshirishga intiladi. Keltirilayotgan bu jihatlarga erishish uchun esa mamalakatda yirik aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat yuritish muhim

⁸ S.Elmirzayev "Zamonaviy korporativ boshqaruv": Darslik -N.: "Iqtisod-moliya", 2019.-225b.

hisoblanadi. Chunki yirik aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati aholi bandligi va daromadlilikini ta'minlanishida, davlat budjeti daromadlarining asosiy qismi shakllanishida, keskin xalqaro raqobat sharoitida mamlakat eksport salohiyatini oshirishda va boshqalarda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu boisdan yirik aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida korporativ boshqaruvida davlatning ishtiroki moliyaviy-qitisodiy inqiroz holatlarida ular bankrotligining oldini oladi va tugatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'z navbatida bozor iqtisodiyotui sharoitida davlatning korporativ boshqaruvida faol ishtiroki ma'lum bir muommoli holatlarga sabab bo'lishi mumkin. Xususan ,davlatning korporativ tuzilmalar faoliyatiga haddan tashqari ko'p aralashuvi tadbirkorlik subyekti sifatida korporativ tuzilmaning mustaqilligini chegaralaydi. Bunda oltin aksiya asosida veto qo'yish huquqining berilishi qarorlar qabul qilishning ortga surilishiga olib keladi va bu o'z navbatida tezkor moliyaviy qarorlar qabul qilish shart bo'lib turgan bir vaqtda korporativ tuzilma faoliyat samaradorligi pasayishiga olib keladi. Bu masalalar o'z navbatida davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlariga investorlar qiziqishlarini keskin pasaytiradi. Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan erishilgan foydaning yangi loyhalarga yo'naltirilishi tufayli dividend amaliyotlari deyarli kuzatilmaydi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlari umumiy ustav kapitalida davlatning ulushi xususiy sektor ulushiga qaraganda bir necha marotaba yuqori ekanligi xususiylashtirishni jadallashtirishni taqozo etadi. Shu sababli, mamlakatimizda aksiyadorlik kapitalida xususiy mulk ulushini oshirish, xususiy aksiyadorlik jamiyatlarini ko'paytirish yuzasidan ishlab chiqilgan taklifning amaliyotga tadbiiq qilinishi xususiy muulkdorlar sinfini kengayishiga xizmat qiladi.

2014 yil 6 maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini ximoya qilish to'g'risida"gi 370-sonli Qonuniga yoki boshqa me'yoriy xuquqiy hujjatlarga davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarning aksiyadorlar yig'ilishi va kuzatuv kengashlarida davlat nomidan ishtirok etuvchi davlat vakilining huquq majburiyatlarini aniq belgilab qo'yish yuzasidan ishlab chiqilgan taklifning joriy etilishi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat ulushi bo'lgan korporativ tuzilmalarning davlat ulushini qimmatli qog'ozlar savdosi ikkilamchi bozorga olib chiqish, uni erkin joylashtirishni kuchaytirish va sotish orqali investorlarni jalb qilish orqali qo'shimcha kapitalga ega bo'lish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif joriy etilishi mamlakatimiz

iqtisodiyoti barqarorligi va aholi turmush farovonligini oshirishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 8-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan o'tkazilgan majlisdan.

2. Bob. Tricker, "Corporate governance" Oxford, 2008.

3. Shyein V.CH, Jupliyeva A.B, Volodin A.A Korporativniy menedjment; opit Rossii i SShA. – M.: Novosti 200.-280 s.

4. Xamidulin M. Finansovye mexanizmi korporativnogo upravleniya. Monografiya. – T.: Moliya, 2008-204 s.

5. Suyunov.D Korporativ boshqaruv mexanizm: muammo va yechimlar. Monografiya. – T.; Akademiya, 2007. -319 b.

6. S.Elmirzayev "Zamonaviy korporativ boshqaruv":Darslik –N.: "Iqtisod-moliya",2019.-225b.

Internet saytlari

www.worldbank.org

www.deponent.uz.